



ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 10th January 2023

Online: 11th January 2023

KEY WORDS

Kitob, kitobxon, strategiya, komil inson, imkoniyat.

KITOB INSON MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI

Isaqova Nafisa Muxamadovna

ANDIJON VILOYATI

BULOQBOSHI TUMANI

9-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

ONA TILI VA ADABIYOT FAN O'QITUVCHISI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524365>

ABSTRACT

Ushbu maqolada maqsadli avlodni yetuk barkamol yosh avlodni tarbiyalash, ularni kelajakda komil shaxs bolib yetishishlari uchun harakat qilish. Zeroki, Kelajak – yoshlar qo'lida.

Umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbasi, unga har qanday vaziyatda hamroh bo'luvchi sodiq do'st shaxs kitobdir. Shu boisdan ham azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga chorlashgan. Inson qancha ko'p kitob o'qisa, uning ma'naviyati, dunyoqarashi, fikrlashlari o'zgaradi. Hayotga boshqacha nazar bilan boqadi. Qanchalik mehringizni bersangiz, kitob ham sizga o'z bilimlarini beradi. Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko'targuvchi uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir.

U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-marifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'aladir. Kitob o'qigan insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi. O'zini yomonlikdan yiroq tutadi. Shuning uchun ham muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitob o'qishni targ'ib qilish bo'yicha kitobxonlik tanlovlarini joriy etdi. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017 yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora- dasturi to'g'risidagi" gi 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirilmogda. Bu avvalo, sizning, bizning uchun emasmi. Komil shaxs bo'lib yetishish uchun emasmi. Prezidentimiz aytganidek "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor, bu avvalo, xalqimizga e'tibor kelajagimizga e'tibor ekanini buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millatyashashi mumkinligini unutishga bizning aslo yo'q. Kitob o'qish hammamizning ma'naviy olamimizni boyitadi. So'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilidagi ayrim vatandoshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, borayotganligini oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning ona tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S. Pushkun butun ijodi davomida 21197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 200000 dan ortiq so'z qo'llagan. Buyuk



bobomiz A.Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni 260000 dan ortiq ekan. Ana shunday milliy boyligimizni asrab- avaylash uchun ham kitob o'qish lozim. Darhaqiqat, kitobxonlik ma'daniyatini oshirish davr talabi.

O'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida turli ma'daniy –ma'rifiy ,intelektual tadbirlar o'tkazilmoqda "Kitob taqdimoti",Eng yaxshi kitobxon" singari.Bularning barchasi bizlar uchun. Shu imkoniyatlardan samarali foydalanaylik azizlar. Kitobga bo'lgan ehtiyoj kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Allomalarimiz qanchalik e'zozlashgan bo'lsalar, hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa yoshlarga kitob o'qitirish ularga kitobga bo'lgan muhabbatini yoshlikdan o'stirish uchun boshlang'ich sinfdayoq bularni o'rgatib boriladi. Hatto 1-sinf o'qish darsligidayoq keltirilgan.Bunda kitoni asrash haqida, uni e'zozlash to'g'risida, uni ko'z- qorachig'imiz singari ehtiyot qilishimiz nazarda tutiladi.Uni varog'ini yirtish ,iflos joylarga qo'yish,gunoh sanalishi o'quvchi yoshlarga juda chiroyli tushuntirilgan. Bu orqali o'quvchi kitobni muqaddas bilishadi. Rus adibi Posternak "bir paytlar shunday yozgan edi. Kitob yonayotgan o'rtanayotgan vijdonning bir bo'lagidir".Shu ma'noda kitobga munosabat insonga uning ruhiyatiga murojaat demakdir. Bizning dono bobolarimiz kitobni xazinaga o'xshatishadi. Chunki u tuganmas xazinadir. Bunday xazinaga ega inson umrning oxirigacha qiynalmaydi. Bu haqida 4-sinf o'qish darsligida ham keltirilgan. Aka –uka hamda podsho haqida.Aka o'z bilimi bilan podshohning mehriga, ishonchiga sazovar bo'ladi. Uka esa o'z nodonligi bilan pand yeydi.Podshohga yaxshi ko'rinish uchun o'zining ahmoqligini ko'rsatadi. Akaning aqli esa ukaning nodonligini qutqarib qoladi.Bu ibratli hikoya ham 4-sinf o'qish darsligida keltirilgan. Bunday ibratli hikoyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Yoshlikdan olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.Shuning uchun ham kitob o'qitishni yoshlikdan o'rgatish lozim. Keyin qancha o'rganilsa ham foydasi bo'lmaydi. Kitobni oftobga qiyos qilishadi. Quyosh yer yuziga o'z ziyosini sochib zamindan o'z giyohini undiradi. O'z ziyosi ila yerga harorat va oziq baxsh etadi. Kitob ham insonning ong-u shuuriga jon bo'lib , uni ulug'vor maqsadlar , bunyodkorlik ishlar sari yetaklaydi. Shuning uchun ham u aql chirog'i, tafakkur qanoti, maqsadlar mayog'i . Agar kitob do'kon ko'p bo'lsa, kitobxonlar soni ortadi. Odam shunday mexanizm bilan yaratilgan. Odam kitob o'qisa ruhiyati shakllanadi.Kitob miyadagi ishlamagan ishlamagan to'qimalarni ishlatadi.Bitta kitobni o'qib manan ozuqa olsa, u odam olimga teng.Chunki u endi to'xtamaydi.

Kitob nafaqat sizga bilim beradi,balki u sizga hayotni o'rgatadi. Hayotimizda bo'ladigan mushkulliklaru chigalliklarni yengishimizga yordam beradi. Alloh bizni ko'rishimiz,o'qishimiz uchun ko'z ato etdi. Ularni turli internet tarmoqlariga sarflamay , kitob o'qishga sarflaylik azizlar. Chunki keyin kech bo'ladi. So'nggi pushaymon ozinga dushman.

References:

1. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Kitobxonlik to'g'risidagi farmonlari"
2. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Milliy tiklanish Milliy yuksalish sari"2-tom 181-bet
3. 1-sinf o'qish darsligi "Sharq nashriyoti" Toshkent-2017 48-bet
4. 4-sinf o'qish darsligi "Sharq nashriyoti" Toshkent 2017 72-bet